



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 11-dekabr

699-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirishga faol nuroniylarni jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 25-noyabrda PQ-405-son qarori ijrosi haqida"gi 588-6-0-Q/24-son qarori haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirishga faol nuroniylarni jalb etish chora -tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 25-noyabrda PQ-405-son hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 7-dekabrda 588-6-0-Q/24-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-dekabrda 588-6-0-Q/24-son qarori rahbarlik va ijrosini ta'minlash uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-noyabrda PQ-405-son qarori bilan:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasining (keyingi o'rinlarda — "Nuroniylar" jamg'armasi) mahallalarda katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan obro'-e'tiborli uch nafar faol nuroniyni beshta kambag'al oilaga biriktirish orqali ularni kambag'allikdan chiqarishga ko'maklashish hamda mahallada sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga jalb etish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi;

quyidagilar faol nuroniylarning asosiy faoliyat yo'nalishlari etib belgilanganligi:

a) oilalarni kambag'allikdan chiqarish yo'nalishida:

xonadon tomorqasidan samarali foydalanish, tomorqada yuqori daromadli ekin turlari ekilishini tashkil etish, ekinlarni parvarishlash ko'nikmasini shakllantirish hamda yetishtirilgan mahsulotlarning realizatsiya qilinishiga ko'maklashishi;

oilani daromadli qilish uchun ko'chma do'kon, kichik ishlab chiqarish uskunalari va boshqa zarur texnika vositalarini bo'lib to'lash sharti bilan ijaraga olishga yordamlashishi;

kambag'al oila farzandlarini, ularning qiziqishlaridan kelib chiqib, mahallalarda hunarmand va ustalarga shogirdlikka biriktirish, shuningdek, ushbu oilalarning ta'lim muassasalarida o'qiyotgan farzandlarini o'quv jihozlari va qurollari hamda sport kiyimlari bilan ta'minlash, ularning qo'shimcha darslar va to'garaklarga qatnashishini tashkil etishi;

oilaning ijtimoiy shartnomadagi majburiyatlarini bajarishi ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilishini tashkil etishi;

b) mahallalarda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish yo'nalishida:

mahallada piyoda yurish madaniyatini targ'ib qilishi;

xonadonlarning sanitariya holatini yaxshilashga va tozalikni saqlashga, oila a'zolarini zararli odatlardan voz kechishga chaqirishi;

keksa yoshdagi fuqarolar uchun mos keladigan sport tadbirlarini tashkil etish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb etishi, shuningdek, sport tadbirlarida qatnashish bilan bog'liq xarajatlarni, jumladan transport xarajatlarini qoplab berishni tashkil etishi;

c) har bir mahallada "Nuroniylar va ota-onalar kengashi"ni tashkil etish orqali mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitning barqarorligini ta'minlash yo'nalishida:

oilalarda ahillik va milliy qadriyatlarni mustahkamlash, mahallalarda o'zaro hamjihatlik va yaxshi qo'shnichilik aloqalarini rivojlantirishi;

nogironligi bo'lgan, profilaktik hisobda turgan va kam ta'minlangan shaxslarni mahallalardagi jamoat tadbirlariga jalb qilishi;

muammoli va boqimondalik kayfiyatiga tushib qolgan oilalar bilan ishlashi; belgilab qo'yilishicha:

a) faol nuroniylarga kambag'al oilalar olti oy muddatga birlashtiriladi hamda "mahalla yettiligi" oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashda faol nuroniylarga yaqindan yordam beradi;

b) faol nuroniylar har oyda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 50 foizi miqdorida rag'batlantirib boriladi;

c) faol nuroniylarning tavsiyasiga muvofiq quyidagi xarajatlar "Nuroniylar" jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab beriladi:

kambag'al oila farzandlarining ta'lim olishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida o'quv jihozlari va qurollari hamda sport kiyimlarini xarid qilish xarajatlari;

mahallada yashovchi keksa yoshdagi fuqarolar uchun sport tadbirlarini tashkil etish va ularning sport tadbirlarida qatnashishlari bilan bog'liq transport xarajatlari;

d) keksa yoshdagi fuqarolarni sportga jalb qilish uchun "Nuroniylar" jamg'armasi hisobidan har bir mahallaga yiliga 10 million so'm miqdorida mablag' ajratilishi;

e) "Nuroniylar va ota-onalar kengashi" tarkibi tuman (shahar) hokimlari tomonidan "Nuroniylar" jamg'armasi va O'zbekiston mahallalari uyushmasi tavsiyasi asosida tasdiqlanishi;

f) faol nuroniylar "Obod mahalla", "Kambag'allikdan farovonlik sari" va "Yashil makon" dasturlari doirasida mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligi hamda ijtimoiy masalalarning holati yuzasidan jamoatchilik nazorati o'rnatilishini tashkil etishi;

Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlariga faol nuroniylar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida ushbu qarorda belgilangan chora-tadbirlarni mahallalarda amalga oshirish bilan bog'liq muammolar va ularning yechimi, shuningdek, jamoatchilik nazoratida aniqlangan masalalar bo'yicha tegishli ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining axborotini eshitib borish amaliyotini joriy etish tavsiya etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Axborot xizmati (Sh.Kenjayevo) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-noyabrdagi PQ-405-son qarorining maqsadi, vazifalari va undan kutilayotgan natijalarni ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish ishlarini tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**